


# ITOCHU Corporation hamda Toyo Engineering Corporation kompaniyalari vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi

// 26 October 2024 yil

<https://special.uzkemyosanoat.uz/oz/press/news/itochu-corporation-hamda-toyo-engineering-corporation-kompaniyalari-vakillari-bilan-uchrashuv-bo-lib-o-tdi>



Bugun "O'zkemyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinosari Yevgeniy Korjikov boshchiligidagi Yaponiyaning ITOCHU Corporation hamda Toyo Engineering Corporation kompaniyalari vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda tomonlar O'zbekiston kimyo sanoatini rivojlantirish strategiyasi, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish va "yashil" mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni muhokama qildilar.

Shuningdek, muzokarada Toyo Engineering Corporation kompaniyasini litsenziar va texnik hamkor sifatida jalg qilgan holda bir qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish, Yaponiyaning moliyaviy institutlari tomonidan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Ma'lumot uchun: ITOCHU Corporation — shtab-kvartirasi Tokioda joylashgan, yapon savdo uylarining "katta beshligi"ga kiruvchi universal savdo uyi. Kompaniya ichki savdo, import-eksport va to'qimachilik, mashinasozlik, metallar, minerallar, energetika, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, ko'chmas multk, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari kabi turli tovarlarning tashqi savdosiga bilan shug'ullanadi.

Toyo Engineering Corporation — muhandislik, qurilish kompaniyasi bo'lib, asosan neft-gaz va neft-kimyo, gaz-kimyo sanoati bilan shug'ullanadi. 1961-yil-tashkil etilganidan buyon kompaniya karbamid ishlab

chiqarish texnologiyasi sohasida jahon bozori yetakchilaridan hisoblanadi. Korporatsiya 100 dan ortiq qurilmalarni loyihalashtirgan va amalga oshirgan.

**“O’zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**